Qabul qilindi: 14-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 21-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 31-oktabr 2026-yil

TEMURIYLAR DAVRIDA TIBBIYOT MUASSALARIDA TABIBLAR FAOLIYATI

Yo‘ldoshev Murodjon Xurram o‘g‘li
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson hududlarida faoliyat yuritgan dor ush-shifo muassasalarining shakllanishi, tashkiliy tuzilishi hamda tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimining tarixiy taraqqiyoti ilmiy jihatdan tadqiq etiladi. Xususan, mazkur muassasalarda faoliyat olib borgan tabiblarning kasbiy faoliyati, tibbiy bilim va tajribasi, bemorlarni tashxislash hamda davolash usullari, shuningdek, ularning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rni va mavqeyiga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqotda Temuriylar hukmdorlarining ilm-fan, xususan, tibbiyot sohasini rivojlantirishga qaratilgan siyosati, tibbiy muassasalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash an’analari hamda tabiblik kasbining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy omillar tahlil qilinadi.

Kalit so‘z: Tabobat, Tibbiyot, matematika (riyoziyot), geometriya(handasa), astronomiya (ilmi hay’at), “Dorush-shifo” (“Shifo maskani”).

THE ACTIVITIES OF PHYSICIANS IN MEDICAL INSTITUTIONS DURING THE TIMURID PERIOD

Abstract. This article scientifically examines the formation, organizational structure, and historical development of the medical service system of medical institutions operating in the territories of Mawarannahr and Khorasan during the Timurid period. In particular, special attention is paid to the professional activities of healers working in these institutions, their medical knowledge and experience, methods of diagnosis and treatment of patients, as well as their role and status in the social life of society. The study analyzes the policies of the Timurid rulers aimed at developing science, particularly medicine, the traditions of supporting the activities of medical institutions, and the historical factors that influenced the

development of the medical profession.

Keywords: Medicine, Mathematics, Geometry, Astronomy, “Dorush-shifo” (“Healing Place”).

Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini o‘rganish barcha zamon olimlarini qiziqtirib, kelgan. O‘rta asrlar tarixidan boshlab, zamonaviy dunyoga qadar tibbiyot tarixi va muassalaridagi tabiblar faoliyati, davriy manbalar va manbaviy ahamiyatga ega asarlarda qisman yoritilgan. Madrasalarda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy (kitobiy) fanlarni o‘qitishga katta e’tibor berilgan. Madrasalarda o‘qitiladigan ilmlar tasnifi, o‘qitish saviyasi, mudarrislar mavqeiga ko‘ra ikki bosqichga bo‘lingan: umumiy ta’lim beruvchi o‘quv maskani, ya’ni bu madrasa deb yuritilgan. Ushbu madrasalarda ilmu naqliya-diniy ilmlar ancha chuqur o‘rgatilgan, shu bilan birga ilmu aqliya-asosiy fanlar matematika (riyoziyot), geometriya (handasa), astronomiya (ilmi hay’at), medisina (tibbiyot), tarix, geografiya, ilmi aruz, arab tili kabilar tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. Madrasalarda yuksak ilmiy martabaga etishgan allomalar faoliyat ko‘rsatgan, bunday madrasalar asosan markaziy shaharlarda, ilm-fan madaniyat rivojlangan Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlarda bo‘lgan. O‘rta asrlarda Movarounnahr va Xurosondagi madrasalar jamiyatning ma’xnaviy hayotining asosiy markaziga aylangan. Ularni bitiruvchilari qo‘lda yozilgan adabiyotlarga, ilmiy va ommabop risolalarga bo‘lgan talabni deyarli to‘liq qondirganlar. Tarix, geografiya, musulmon huquqi, arab tili gramatikasi, qur’on sharhlari, she’riyat, axloq, mantiq, matematika, astronomiya, tibbiyot-bu fanlarning hammasi madrasada ta’lim berish doirasidagi fanlarni tashkil qilgan[3;346]. Buxoroning hozirda ham so‘lim go‘shalaridan biri bo‘lgan Jo‘yi Zar hududi ham manbalarda tilga olinib, Eronga qilingan besh yillik yurish davrida tilga olinadi. Yoz pallasida harbiy yurish boshlangan bo‘lib, Buxoroga kelish jarayonida Amir Temur yo‘lda kasallanib qoladi. O‘sha yilning 23-iyun kuni Buxoro shahri yaqinidagi Jo‘yi Zar hududiga etib kelgach, shu yerda davolanish uchun to‘xtagan.

Samarqandda esa “Dorush-shifo” (“Shifo maskani”) nomli yirik kasalxona boiib, unga o‘z zamonasining taniqli tabiblari-Mir Sayid Sharif Sheroziy (1330-1414) rahbarlik qilgan. Bu tabib asli Juronlik bo‘lib, Temurningg taklifi bilan Samarqandga kelib, Shu kasalxonaga

boshchilik qilgan. Shu davr Samarqandda yana bir yirik tabib-Mansur ibn Muhammad yashagan. Bu olimning toiiq ismi Mansur ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf ibn Ilyosdir. O‘sha davrdagi yetuk tabiblardan bizga yana Mavlono Fayzulloh Tabriziy va “Hisobiddin Ibrohim Kirmoniylar ham maium. Mavlono Fayzulloh Tabriziy Temuming shaxsiy tabibi edi. U shohning hamma safarlarida birga boigan. Temur ilm ahillarini qoilab-kuvatlangan, har turli fanlami ayniqsa amaliy ahamiyatga ega boigan fanlar rivojlanishining tarafdori boigan.U o‘zi zabt etgan mamlakatlardan faqat oltin, kumushlami emas, balki nodir kitoblami ham olib kelar edi. Temur bu nodir kitoblami saqlash uchun saroyda maxsus kutubxona (“Kitob gumbazi”) qurdirgan edi. Shifoxonalarda ishlovchi tabiblarga yaxshi maosh toian- gan. Temuming maxsus farmoni bilan ulaming maoshi olim- lar, munajjimlar, tarixnavislar va muhandislaming maoshlariga tenglashtirilgan.

Temur obodonchilikga, shaharlaming ozoda saqIanishga katta e’tibor bergan. Ayniqsa, davlat poytaxti Samarqandni obod qilishga ko‘p harakat qilgan. Jo‘yi Zar qishlog‘iga Amir Temur oila a’zolarini chaqirtiradi. Samarqanddan Saroymulkxonim, Tuman oqo, Sulton Baxt begimlar kelgan bo‘lsa, Shahzoda Muhammad Sulton qo‘shinning ilg‘or qismlari bilan Amudaryodan o‘tgan bo‘lsada farmonga muvofiq qo‘shinlarni shu erda qoldirib o‘zi bobosi yoniga qaytganligi “Zafarnoma” asarida keltirib o‘tilgan.

Ikkinchi Renessans, ya’ni temuriylar davrida ham tibbiyot rivojiga katta ahamiyat berilgan. Masalan, Hirotda Umarshayxning rafiqasi Mahdi ul-Milkat oqa qurdirgan “Dor ushshifo” mashhur edi. Yuksak did va mahorat bilan bunyod etilgan mazkur shifoxona bilan uning shimol tara-fida barpo etilgan “Dor al-xuffos” orasida hovuz bo‘lib, unda tabiblar bemorlarni davolashgan. Shuningdek, Bog‘i Zag‘onda ham shifoxona mavjud edi. Yetuk shifokorlar bemorlarni shifoxonalarda davolash bilan birga madrasa, o‘quv yurtlarida mudarrislik ham qilishgan. Ba’zi-lari asarlar yozishgan. Olimlarning ayrimlari o‘zlaridan oldin yozib qoldirilgan sohaga oid arab, fors, turkiy tillardagi asarlariga sharhlar bitishgan.

Muarrixlar Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshohning ma’lu-motlaricha, Amir Temur Shom (Suriya) dan Samarqandga tabiblar sardori Mavlono Sulaymonni olib kelgan. Sohibqironning shaxsiy tabibi Mavlono Fazlulloh Tabriziy hisoblangan. Shu-ningdek,

buyuk hukmdor saroyida Mavlono Izzaduddin, Mas’ud Sheroziy, Mavlono Farrux kabi mashhur tabiblar ham faoliyat ko‘rsatishgan.

Samarqandda “Dor ush-shifo” (Shifo maskani) nomli yirik shifoxona bo‘lib, unga o‘z zamonasining taniqli tabibi — Mir Sayid Sharif Sheroziy rahbarlik qilgan. Shu davrda Samarqandda boshqa mashhur tabiblar, jumladan, Mansur ibn Muhammad, Mavlono Fayzulloh Tabriziy va Hisobiddin Ibrohim Kirmoniy faoliyat olib borgan. Shifoxonalarda ishlovchi tabiblarga yuqori maosh to‘langan, hukmdorlarning maxsus farmoni bilan ularning maoshi olimlar, munajjimlar, tarixnavis va muhandislarning maoshiga tenglashtirilgan.

Xulosa qilib aytgan, Amir Temur va temuriylar sulolasi tibbiyot tarixini o‘rganish va undagi tibbiyot muassalari faoliyatini ilmiy jihatdan tadqiq qilish, mustaqillik yillarida dastlabki ustuvor vazifa bo‘lib qoldi.O‘rta asrlar aholisning qanday kasalliklarga chalingani ularni davolash bilan bog‘liq muammolar bu yechimlarda hukumdor tabaqa vakillarini faoliyati qanday bo‘lganligi xususidagi fikrlar dalillangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амир Темур жахон тарихида / Масъул мухаррир: Х-Кароматов. Муаллифлар жамоаси: С.Саиддосимов (рахбар), А.Ахмедов, Б.Ахмедов ва бопщ. Тулдирнлганва кайта ишланган иккинчи нашри. — Т.: Шарк, 2001. – Б. 56.

2. Бўриев О, Қаҳҳоров Н.Темурийлар ренессанси. - Т.: Тафаккур, 2020. - Б.64.

3. Ҳ.Камол (Ҳамзахон Камолов) История вторжения ковевых племен Дашт-и Кипчака в Мавераннахр и Хорасан XVI в). – Душанбе: Дониш, 2012. – С. 346.

4. X.E. Rustamova, N.K. Stojarova, Sh.A. Abdurashitova, Q.Ch. Nurmamatova Tibbiyot tarixi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / X.E. Rustamova va boshq. - Toshkcnt. « O‘zkitobsavdo» nashriyoti, 2020. - 240 b.

5. X.E. Rustamova, N.K. Stojarova, Sh.A. Abdurashitova, Q.Ch. Nurmamatova Tibbiyot tarixi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / X.E. Rustamova va boshq. - Toshkcnt. « 0 ‘zkitobsavdo» nashriyoti, 2020. -103 b.

6. Яздий, Шарафуддун Али. Кўрсатилган асар. - Б. 143.

7. J.Rizayev./ O‘zbekistonda tibbiyot tarixi va rivoji.-“Yangi O‘zbekiston”. 2022-yil 25-yanvar.4-son.89-93 b.